

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
JISMONIY MADANIYAT FAQO'L'TETI
UMUMIY JISMONIY TARBIYA KAFEDRASI**



O'QUV USLUBIY MAJMUASI
«JISMONIY TARBIYA VA SPORT»
FANI BARCHA BAKALAVRIYAT TA'LIM YO'NALISHI
TALABALARI UCHUN

Tuzuvchilar:

Adambaev J.X.

Urganch-2010

Mazkur o'quv uslubiy majmua barcha bakalavriyat ta'lim yo'nalishi ushun mo'ljallangan bo'lib, jismoniy tarbiya va sport faninig maqsad vazifalari, atamalar va tushunchalar, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, o'qitish metodikasining ahamiyati to'g'risida bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Taqrizchilar:

1. O'.L. Matnazarov-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
Jismoniy madaniyat faQo'lteti dekani.

2. Jumaniyozov M.J. - pedagogika fanlari
nomzodi, pedagogika faQo'lteti dotsenti.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС, КАСБ-ХУНАР ТАЪЛИМИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ**

Тасдиқланди
Ўз.Р.ОЎМЎВ

Ваз.ўр.

Ш.Аюпов

06.04.2004й.



«ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ»

фанидан намунавий

ДАСТУР

(бакалавр йўналиши учун)

ТОШКЕНТ - 2004

Ushbu dastur «Jismoniy tarbiya» fanidan bakalavr talabalar zaruriy tayyorgarlik darajasi va bilimlari mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlangan. Malakaviy talablar fan bo'yicha qanday tasavvurga ega bo'lishi, nimalarni bilishi, qanday ko'nikmalar hosil qilishi lozimligini o'z ichiga oladi.

Ushbu namunaviy dastur shu fanga oid ishchi o'quv dasturi, yillik taqvimli rejalar, mavzuli dasturlar, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish uchun tavsiya etiladi. Namunaviy dasturni kelajakda to'ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

Toshkent shahar, 700070, Shota Rustaveli ko'chasi 25, OO`MKHTRM Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, tel: 136-39-20.

Mazkur dastur namunaviy dastur sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy kompleksining maxsus metodologik komissiyasi bayonnomasi. va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy o'quv yurtlari ilmiy-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash Prezidiumining 2003 yil 29 martdagi majlisi qarori bilan tavsiya etilgan.

Nashrga tayyorlovchi mas'ullar: prof. Nishonaliev U., Hamdamova M.Z.

Tuzuvchilar: Normurodov A. N. - Sharqshunoslik instituti kafedra mudiri, dotsent.

Morgunova I. I. — Sharqshunoslik instituti katta o'qituvchisi.

Taqrizchi: dots.Umarov M. N.

1. SO`Z BOSHI

1.1. Fan mazmuniga qo`yiladigan malakaviy talablar

Bakalavr «Jismoniy tarbiya» fani bo`yicha:

Jismoniy tarbiyaning inson organizmini rivojlanishi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi lozim.

Jismoniy tarbiya va sog`lom turmush tarzi asoslarini;

- sog`liqni sakdash va mustahkamlash, ruhiy-jismoniy layoqat va xususiyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bo`yicha bshimlarga ega bo`lishi zarur.

O`z hayotida va kasbiy faoliyatida ruhiy-jismoniy chiniqish uslublarini qo`llash ko`nikmasiga ega bo`lishi lozim.

O`quv dasturini tuzish jarayonida amalda qo`llanilayotgan dasturlarga tanqidiy yondashib, ularning ijobiy tomonlarini olib, hozirgi zamon talablari asosida ilmiy ma`lumotlar, yangi pedagogik texnologiya yo`nalishlariga e`tiboran, mutaxassis olimlarning ijobiy ish tajribalariga jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid davlatimiz qonun va qarorlariga tayanildi.

Oliy o`quv yurtlarida haftasiga bir marta ikki soat o`tiladigan jismoniy tarbiya darsi o`sib kelayotgan talaba-yoshlar organizmiga to`laqonli yuklama berish uchun ushbu dasturdagi soatlar etarli emas. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi 271 raqamli «Respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qaroriga, O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`limining me`yoriy hujjatlariga asosan tayyorlandi.

Jismoniy tarbiya dasturida berilgan 144 soat hajmdagi o`quv mashg`ulotlari hamma talabalar uchun 72 soat majburiydir.

Bu mashg`ulotlarning maqsadi: talabalarni sog`ligini mustahkamlash va jismoniy rivojlanishini takomillashtirish; talabalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va usulubiyatining negizi bilan tanishtirish, shuningdek o`quv mashg`ulotlar rejimida jismoniy tarbiya va sportning asosiy vositalarini ishlatishda maxsus bilimlar va amaliy ko`nikmalarni, mutaxassisligi bo`yicha ishlab chiqarishdagi dam olishda foydalanish va sport texnikasini asosiy unsurlariga o`rgatishdan, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirish, ta`lim va tarbiya jarayonida mustaqil fikrlaydigan, raqibini bexosdan qo`llagan uslublariga qarshi to`g`ri qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Shu bilan birga:

- talabalarning «Alpomish» va «Barchinoy» test mezonlari talablarini bajarishi uchun jismoniy tayyorgarligini oshirish;

- talabalarni kelajak ish faoliyatiga, bo`lajak mutaxassisligini (kasb) inobatga olib kasbiy, amaliy, jismoniy jihatdan tayyorlash;

- talabalarga jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlari nazariyasi asoslaridan, uslubiyatidan, sportda jamoatchi yo`riqchi, murabbiy va hakamlik qilish bo`yicha kerakli bilimlarni berish;

- talaba-sportchilarning sport mahoratini takomillashtirish;

- talabalarda jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlari bilan muntazam shug`ullanish kerakligiga ishonch tug`dirish.

Dasturda ko'rsatilgan mashg'ulotlarni (sport turlari) o'quv yurtning imkoniyatidan, o'qituvchilar mutaxassisligidan va o'quv yurt an'analardan kelib chiqib, mavjud sharoitlarga e'tibor berib institut ilmiy Kengash qarori bilan amaliy mashg'ulotlar boshqa sport turlari bilan almashtirishga ruxsat etiladi.

Masalan: dasturdagi gimnastika, suzish, kurash bilimlarini o'rgatishga imkoniyati bo'lmagan (anjom-uskunalar, kurash zali, suzish havzasi, to'shaklar, mutaxassislar yukligi va h.k.). o'quv yurtida ushbu turlarni futbol, aylanma usul mashg'ulotlardan o'tish estafetalari, trenajyorlarda shug'ullanish mashqlari, mokisimon va estafetalik yugurishlar, himoyali yakka kurash usullari kabilar bilan almashtirish mumkin.

Buning uchun o'qituvchi shunday turlardan ijodiy foydalanishi, ya'ni noqulay sharoitlarda ham (ob-havoning o'zgarishida, zal xonalarida, o'quv yurt binosi ichidagi bo'sh joyda) mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar o'tkazishni uddalay olishi zarur.

Masalan: qizlar uchun ritmik gimnastika, raqs mashg'ulotlari, atletik gimnastika, trenajyorlardagi mashqlar, o'z-o'zini himoya qilish mashqlari (tik turgan holda).

Mavjud shart-sharoitdan qat'iy nazar, barcha imkoniyatlardan foydalangan qolda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, ular vujudiga foydali ta'sirlarni yuklash zarur.

Dastur ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim uzluksizligi davomida tegishli saviyani ta'minlovchi davlat ta'lim standarti asosida har bir shaxsga ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va shaxsiy muammolarni hal etishga tulaqonli kirishish imkoniyatini beradi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida jismoniy ta'lim olish yo'llari xilma-xilligi sharoitida har bir ta'lim muassasasi talabalarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, jismoniy imkoniyatlarni rivojlantirish, ularda jismoniy madaniyat asoslarini shakllantirishni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratib

berishga majburdir.

Oliy ta'lim uchun jismoniy tarbiya buyicha o'quv dasturi «Jismoniy tarbiya va ta'lim» kursi mazmuniga, o'quv yuklamasi hajmiga (rejadagi o'quv soatlari), majburiy jismoniy tayyorgarlik darajasiga (jismoniy sifatlarni rivojlanishi, barkamol topish, ko'nikma va malakalarining shakllanishi) kun davomida, hafta, yil davomidagi harakat faolligining majburiy hajmiga talabalarning nazariy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar asosida shakllanadi.

Mazkur dastur talabalarning bilimlari ko'nikma va malakalari, shuningdek, shaxsning asosiy ma'naviy, axloqiy va jismoniy sifatlari doirasini tartibga soladi, butun oliy ta'lim tizimiga singdiradi, o'quv tarbiya jarayoniga miqdoriy va sifat jihatdan baho berish tartibi va usullarini ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari tasdiklangan o'quv rejasiga asosan, 1-4-semestrlarda o'tkaziladi. har bir talaba jismoniy tarbiya fanidan ta'lim olish jarayonida 4 marta sinov (reyting nazorati) topshiradi.

1.2. Bakalavriyat uchun o'quv soatlarining namunaviy taqsimlanishi

(soatda)

Reja bo'limlariyushg nomi

т\р		1-курс		2-курс	
1.	Фанга кириш	2		2	
2.	Амалиёт	34	36	34	36
3.	Енгил атлетика	10	8	6	8
4.	Спорт ўйинлари, сузиш	10	10	12	8
5.	Кураш, теннис, стол тенниси, бадминтон	6	8	4	6
6.	МАЖТ	2	4	8	8
7.	Гимнастика	8	6	6	6
ЖАМИ:		36	36	36	36

Bakalavriatura talabalari uchun amaliy mashg'ulotlarning mezonlari dasturda ko'rsatilgan sport turlari bo'yicha jismoniy tarbiya kafedrasida ishlab chiqiladi.

Reyting-test mezonlarini qabul qilish reyting qaydnomasini rasmiylashtirish uchun har bir talaba uchun har semestrda 2 soat o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasiga kiradi.

Jismoniy tarbiya faniga o'quv dasturida bor-yo'g'i 72 soat ajratilgan xolos. Shuni inobatga olib talabalarga jismoniy tarbiya fanidan nazariy ta'lim berishni O'ROO'MTV ning 2003 yil 4 yanvar hay'atining 1/1 sonli qaroriga asosan har bir kursda (1-4- kurslarda) 4 soatdan ma'ruzalarni faQo'ltativ shaklda budjetdan tashqari mablag'dan, soatbay jamlamasidan haq to'lash bilan amalga oshiriladi.

2. Quyidagi asosiy uslubiy tavsiyalarga rioya qilish zarur

1. O'quv materialini yana ham mustahkamroq o'zlashtirish uchun dasturdagi har bir asosiy mavzuga (qisqa yoki uzoq masofaga yugurish, uzunlikka sakrash, uloqtirish va boshqalar) kerakligicha soat ajratish kerak.

2. Sportning bir turi bo'yicha materiallarni o'rganishda soatlarni sohib tashlash va uzoq vaqt davomida ular orasida uzilish bo'lishi (sport o'yinlarining to'rt soat darsini sentabrda, olti soatini noyabrning oxirida o'tkazilishi) tavsiya etilmaydi.

3. O'quv materialini yanada muvaffaqiyatliroq o'zlashtirish uchun har bir darsda ikki-uchtadan ortiq vazifa quyilmasligi kerak.

4. O'quv yilining har bir semestri yakuniy darslarida yoki o'quv dasturining oxirgi soatlarida sinov-test me'yorlarini qabul qilish oldindan rejalashtirilishi shart.

5. Darsning oxirida uy vazifasini tushuntirishga vaqt ajratish tavsiya qilinadi.

Talabalarga jismoniy ta'lim berish shakli va usullari xususida shuni qayd qilish lozimki, ularning jismoniy tayyorgarligi, jismoniy rivojlanishi, jinsini hisobga olgan va individual yondashgan holda yuklama berish kerak.

3. Jismoniy tarbiya fashshing vazifalari

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadga binoan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- oliy o`quv yurtlari talabalarini har tomonlama rivojlantirish, sog`lom, aqliy etuk, jismoniy mehnatga va ona-Vatanni himoya qilishga qurbi etadigan shaxs qilib tarbiyalash;

- talabalarining salomatligini mustahkamlash, ish samaradorligini oshirish va ijodiy faolligini oshirish, kasallanish darajasini pasaytirish;

sog`lom turmush tarzini shakllantirish; talabalarlarning o`z jismoniy rivoji masalalariga bo`lgan dunyoqarashini o`zgartirish;

milliy o`yinlarni, sport musobaqalari va ularning turlarini talabalarni jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishda muvofiqlashtirilgan jismoniy tarbiyani rivojlantirish;

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq oliy o`quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya-sport sohasida quyidagilar joriy etiladi:

jismoniy tarbiya sog`lomlashtirish va sport klublari; - jismoniy tarbiyaning ilmiy jihatdan asoslangan tizimi;

- o`quv-mashg`ulot jarayonining zamonaviy yangi pedagogik texnologiya uslubiyatlari;

sport zahiralari tayyorlash shaxobchalarini kengaytirish;

talabalarda Olimpiya harakati to`g`risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish, jismoniy mukammallikka bo`lgan ongli ehtiyojini shakllantirish;

- mamlakat sportchilarini Olimpiya, Osiyo o`yinlariga, butunjahon talabalar Universiadasiga, Markaziy Osiyo va Butun Jahon o`smirlar o`yinlariga tayyorlash va ularning mazkur o`yinlarda muvaffaqiyatli qatnashishlarini ta`minlash;

- jismoniy tarbiya mashg`ulotlari orqali kasallikning oldini olishdagi vositalardan foydalanish, sog`likni mustahkamlash, mashqlar bajarganda o`z-o`zini nazorat qila bilish;

- talabalarni sport turlari bilan faol shug`ullanishga jalb qilish, jismoniy tarbiyaning mohiyatini va talabaning har tomonlama kamol topgan shaxs bo`lib etishiga ko`maklashish, qo`lga kiritilgan yutuqlarni tajribada o`rganish;

- oila, maktab, litsey, kollej va oliy o`quv yurtlarida mintaqaviy va milliy sport turlarini tashviqot qilish va unutilganlarini esa qayta tiklash;

- asosiy Olimpiada sport turlari bo`yicha hakamlar qila bilish malakasini puxta egallash, yo`riqchilar nazariyot, amaliyot malakasini egallab mashg`ulotlar olib boradigan mutaxassislarni tayyorlash va sport turlariga qiziqishi bo`lganlar uchun klub yoki sport tashkilotlarini tashkil qilish, talabalar sport malakasini oshirishdir.

4. Jismoniy tarbiya mashg`ulotlari

Talabalarni jismoniy tarbiyalash dars va darsdan tashqari vaqtda o`quv davri mobaynida olib boriladi.

5. O`quv mashg`ulotlari

- nazariy va amaliy;

- yakka mashg`ulotlar.

- nazariy bilim o`quv yurtlarning jismoniy tarbiya kafedresi kengashi tomonidan tasdiklangan referatlarni va nazariyadan turli xil mavzuda yozma ishlarni bajarish.

6. Darsdan tashqari mashg`ulotlar

- kundalik ertalabki gigienik gimnastika mashqlari;
- sho`ba (seksiya), sport va ishqibozlar klubidagi mashg`ulotlar;
- ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari: jismoniy tarbiya va sport sohasidagi talabalar ilmiy uyushmasining negizi, muammo laboratoriyalaridagi mashg`ulotlar;
- jismoniy tarbiya jarayonida ilmiy asoslangan turli shakllardagi mashklar ko`lami, ilmiy asoslangan harakat faoliyati haftada 12-16 soatni tashkil qilishi, talabalar jonbozligi, harakat faoliyati va ularning tana azolarini mo`ta`dil ishlashi uchun shart-sharoit tug`diradi.

7. Talabalarni o`quv guruhlariga taqsimlash

Amaliy mashg`ulotlarda qatnashish uchun talabalar asosan: asosiy, maxsus tibbiy, tayyorlov va sport mahoratini takomillashtirish guruhiga taqsimlanadilar. Guruhlarga taqsimlash o`quv yilining boshida talabalarining jinsi, sog`liq holati, jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishi xamda qaysi bir sport turiga bo`lgan qiziqishini inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Asosiy o`quv guruhiga - shifokorlar ko`rigidan (dispanserizatsiya) o`tgan, sog`ligida nuqsoni bo`lmagan, jismoniy. tayyorgarligi yaxshy bo`lgan talabalar kiradi.

Maxsus tibbiyot, tayyorlov guruhiga - shifokorlar ko`rigidan (dispanserizatsiya) va nazoratidan o`tish natijasida sog`ligida, jismoniy tayyorgarligida ayrim nuqsonlar topilgan va yaqin orada kasallika chalingan talabalar taqsimlanadi. Bu o`quv guruxlarida talabalarining funktsional imkoniyatini ham e`tiborga olish maqsadga muvofiq bo`ladi. O`quv davrida ushbu guruhdagi talabalar bilan mashg`ulot o`tkazishdan maqsad ularni sog`lom qilish, organizmini kasallikka chidamligini oshirish va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishdir.

Vaqtincha jismoniy yuklamalardan ozod qilinganlar guruhi (amaliy mashg`ulotlardan) ozod qilingan talabalarining funktsional imkoniyatiga e`tiboran maxsus guruh tuziladi. Amaliy mashg`ulotlardan o`z sog`ligi holatiga binoan uzoq vaqtga jismoniy mashg`ulotlardan (yuklamalardan) ozod qilingan talabalar maxsus o`quv guruhiga o`tkazilib, ular qurbi etadigan o`quv dasturining mashklari bilan shug`ullanadilar. Bunday talabalarni alohida guruhga birlashtirish tavsiya qilinadi, ular nazariy bilim soatida ko`prok saboq oladilar va jismoniy tarbiya mavzuida referat yozadilar. Ular jismoniy mashqlar ta`sirida odam organizmida sodir bo`ladigan fiziologik jarayon, o`z kasalliklarini jismoniy mashqlar va vositalar bilan davolash uslubiyat bilimiga ega bo`lishi, asosan bu guruh qatnashchilari musobaqalar qoidasi bilan tanishtirilib, yuqori kursda faqultetlararo, o`quv yurtlar musobaqalarida hakamlik qilishga jalb etilib, keyinchalik ularning eng faollariga hakamlik unvoni beriladi va reyting ball 60%dan yuqori qo`yilmasligi, talabalarining reyting daftarchasiga jismoniy tarbiya o`qituvchisi «ozod qilingan» deb yozishi shart.

Sport mahoratini takomillashtirish o`quv guruhiga - asosan sog`lom, shifokorlar nazoratidan o`tganda sog`ligida nuqsoni bo`lmagan, sportni qaysidir bir turini mukammal bilgan, sport unvoni bo`lgan talabalar kiritiladi. Ushbu talabalarda sportni biron-bir turi bilan chuqurroq shug`ullanishga xohishi bo`lishi shart. Ushbu o`quv guruxlarining soni va ixtisosi jismoniy tarbiya kafedrasining mutaxassislariga hamda sport inshootlariga bog`liqdir.

Asosiy va sport bo`limlaridagi talabalarga o`zi xoxlagan sport turini tanlash huquqi beriladi.

Sport bo'limining talabalari uchun o'zi tanlagan sport turidan shaxsiy jadval tuzib belgilangan vaqtda sinov talablarini bajarishlariga sharoit yaratiladi.

Talabalarni bir o'quv guruhidan ikkinchi o'quv guruhiga faqat o'quv yilining oxirida yoki yarim yillikning semestri oxirida o'tkazish mumkin. Maxsus tibbiyot bo'limidan shifokorning xulosasiga qo'ra kasallikka chalinganligi talabalarni boshqa guruhga o'quv yili davomida o'tkazish mumkin. Guruhlar tarkibidagi talabalar soni: asosiy va sport guruhi 15 nafargacha, maxsus tibbiyot, tayyorlov va vaqtincha ozod qilingan talabalar soni 8 - 10 nafardan oshmasligi kerak.

8. Nazariy qism

Dasgurda nazariy bo'limning mazmuni, talabalarda tartibga solingan tarmoklar: ijtimoiy tabiat qonunlari, psixologo-pedagogik, jismoniy tarbiya va sportning tarixi, Xalqaro Universiada, Olimpiada harakati va undan bilim olishni tavsiya qiladi. Bo'lajak mutaxassislarning mustaqil fikr yuritishini shakllanishi jismoniy tarbiya tadbirlaridan ishchanlik va yuqori darajada butun hayot faoliyatida foydalanishga o'rgatadi.

1-mavzu: O'zbekistonda jismoniy madaniyat, sport va olimpiya harakatlari Ibtidoiy, Feodal tizimlarda jismoniy tarbiya harakatlarining ko'rinishi. Ulug' allomalar Ibn Sino, Al Xorazmiy, Amir Temur, Mahmud Pahlavon, Alisher Navoiylar jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi va sog'lom vujudga ega bo'lganliklari to'g'risida. O'zbekiston hududida 1860 yilgacha jismoniy tarbiya harakatlari, Oktabr to'ntarilishigacha va sobiq SSSR davridagi jismoniy tarbiya. Sobiq SSSR xalqlar Spartakiadasida o'zbekiston sportchilarini o'rni, o'zbekiston sportchilarini halqaro musobaqalar, universiada va Olimpiada o'yinlarida ishtiroki, Osiyo o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilarni ishtiroki va o'rni. Mustaqillik davrida Olimpiada harakatlari. o'zbekistonlik sportchilarni xalqaro musobaqalarga ishtiroki va o'rni.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun belgilangan asosiy qarorlar va farmoyishlar. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida jismoniy ta'limni tashkil topishi, II jahon urushi va undan keyingi davrda jismoniy tarbiya tizimi harakatlarining o'sishi.

2-mavzu: Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida o'quv fanining shakli

Jamoa hayotida jismoniy tarbiyaning ko'rinishi. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy vazifasi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya harakati tuzilishining asosiy xislati. O'zbekistonda jismoniy tarbiya boshqaruv tizimi (maqsadi, vazifasi, asosiy tushunchasi).

3-mavzu: Milliy sport turlari

Oliy maktab sharoitida etuk mutaxassislarni tayyorlash tarmog'ida milliy o'yinlarning o'rni va ularning kasb-mahorat yo'llanmasi. Talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan e'tiborining o'ziga xos boyligi. Talabalar uchun jismoniy tarbiya o'quv dasturi, undagi milliy O'yinlarning o'rni. O'quv dasturining mazmuni, uning asosiy bo'limlari. Talabalarni o'quv bo'limlariga va guruhlariga taqsimlash. O'quv dasturining mezonini egallash, sinov (reyting) talablari, tekshiruv me'yori, jismoniy tarbiya fanidan sinov va yakuniy nazorat (imtihonlar).

Jismoniy tarbiya, sport, sayyohlik mashg'ulotlarining darsdan tashqari shakllari. Oliy o'quv yurtlari va faqo'ltetlarda ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil qilish. Sport klubi va o'quv yurti an'analarini ahamiyati.

Jismoniy tarbiya o'quv, mutaxassis, jamoa, jismoniy tarbiya-sport faoliyati va uni oilaviy hayotda amalga oshirish. Milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar tasnifi.

4-mavzu: Jismoniy tarbiya fanining tabiiy-ilmiy asoslari

Inson • vujudlari yagona biologik tarmoq, harakat faolligining inson a'zolarining o'rab turgan muhit bilan o'zaro aloqaning zarur omili sifatida. Jismoniy mashklar va sport bilan muntazam shug'ullanganda odam organizmi a'zolarida jismoniy mashklar ta'sirida yuz beradigan salbiy yoki ijobiy o'zgarishlar. Jismoniy tarbiya mashqdari bilan chiniqish jarayonida odamning ayrim a'zolarini o'sish qonuniyati (modda, quvvat almashinuvi, qon tarkibi, qon aylanishi, nafas olish va boshqa ichki a'zolar, tayanch harakat apparatlari va ularni boshqarish faoliyati).

Harakat faoliyati va uning aqliy zo'riqish, ruhiy zarba (stress), turli kasalliklar: kuyish, sovuq urish, gippodinamiya, gippoksiya ta'siriga, radiatsiya, ishlab chiqarishdagi zaharli moddalarga qarshi inson a'zolarining chidamligini oshirishi.

5-mavzu: Sog'lom turmush tarzi

Respublika geografik o'rning o'ziga xos xususiyati (paxta yakka xonligidan kelib chiqqan zararli oqibat va uni odam organizmiga ta'siri), quyosh radiatsiyasi. Sog'lom turmush tarzi tushunchasi, uning mazmuni, talabalarni turmush faoliyati bilan bog'liqligi. Sog'lom turmush tarzini aniqlash omili mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil qilish, to'g'ri va me'yorida ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, harakat faolligi va chiniqish, talabada sog'lom turmush tarzini shakllash. Jismoniy tarbiya mashqlari va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda, mashg'ulotlar joyiga, talabalarni yashash joyiga, kiyim-kechaklariga quyiladigan gigienik talablar.

Ish unumdorligining o'sishi va ko'nikmada yordamchi vositalar (hammom, issiq xonalar, milliy sharqona hammomlar, uqalash, badanni quyoshda toblash va sun'iy toblanish, nur olish va h.k.)

Talabalarining o'quv mehnat va qayot faoliyatini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy psixofizologik tavsiflar. Talabalar o'quv mehnatini yuqori unumdorlikka etkazish shartlari. Akliy mehnatni ilmiy tashkil qilish usullari. Turli kasbdagi kishilarning namunaviy harakat faolligining tartibi. Oliy o'quv yurtlarining talabalarida akliy mehnat, ish kobiliyati, o'zlashtirishni kuchaytirish uchun o'quv davrida jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanish.

Ertalabki gigienik gimnastika mashklar. Ritmik gimnastika. O'quv kuni davridagi mashqlar. havaskorlar klubidagi mashg'ulotlar. Xotin-qizlar uchun mashklar, atletsp, sog'lomlashtirish, suzish, sport turi va bo'limlaridagi mashg'ulotlar.

Ommaviy sog'lomlashtirish, badantarbiya va sport tadbirlarida ishtirok etish. haftalik zaruriy harakat faolligini bajarish.

Mashg'ulotlar usullarining mazmuni, shakli va asoslari. Talabalarining jismoniy tayyorgarligi, sog'ligi, yoshi, jinsiga bog'lik bo'lgan holda jismoniy mashqlar bajarishda jismoniy tarbiya faniga qo'yilgan vazifalarni rejalashtirish asoslari. Talabalarining jismoniy rivojlanishi hamda funktsional qolatini tartibga solishda sport mashg'ulotlarini samaradorligini nazorat qilish.

6-mavzu: Jismoniy va sport tayyorgarligining asoslari

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida tayyorgarlikning har xil turlari (texnikaviy, taktik, nazariy, ruhiy-irodali, jismoniy). Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlar: kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epcchilik, egiluvchanlik: yoshiga qarab tabiiy rivojlanishda o'zgarish. Jismoniy rivojlanish sifatida asosiy vositalar va rejalar qonuniyatini ta'kidlash.

Ommaviy sport va yuqori natijalar sporti, ularning maqsadi va vazifasi. Sport mashg'ulotlari va uni ayrim qismlarini to'liq jarayondan tuzilishi. Sport mashg'ulotlari usullarining negizi. Sport

tayyorgarligini rejalashtirish va tashkiliy tadbirlar. Mashq bajarish — mashg'ulotlar tuzilishining yaxlitligi asosi.

7-mavzu: Mutaxassislik bo'yicha. (MAJT) Mutaxassislikka amaliy jismoniy tayyorgarlik

Bo'lajak mutaxassislarni ko'zda tutish. MAJTni asoslash, uni maqsadi va vazifasi. Ijtimoiy iqtisod omilini kerakligi va umumiy MAJTga yo'llanma. Talabalarda jismoniy tarbiya sohasida MAJTning o'rni. o'quv jarayonida MAJTning tashkiliy shakli va vositasi. Mutaxassis talabalarni kasbini ixtisoslashtiradigan MAJT aniqlab beradigan jismoniy tarbiyaning mazmuni. Nazariy bilimni egallash, amaliy epchillik, jismoniy sifatlarni va malakaning shakllanishi. Jismoniy mashq va sport mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya berish jarayonida jismoniy rivoj topishini tasdiklaydi. Bo'lajak mutaxassisga jismoniy mashq va sport doimiy mashg'ulot psixologik tajriba xususiyati va shaxsiy jismoniy sifatlardan foydalanish imkoniyatini tarbiyalaydi. Sport amaliy turlaridan musobaqalar MAJTning tadbiridir.

8-mavzu: Mehnatni ilmiy tashkil qilish va jismoniy tarbiya (MIT)

Jismoniy tarbiyaning MIT qilish tarmog'idagi maqsadi va vazifasi. Ishlab chiqarish gimnastikasining turlari, uni amalga oshirish va tashkil qilish. Shug'ullanadiganlarning mehnat sharoitini inobatga olib rejalashtirish. Bo'lajak mutaxassislarga uchun ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasining shakli va usuli.

Oliy o'quv yurtini tugatgan mutaxassislarni jismoniy tarbiyani MITga jalb qilishning o'rni.

9-mavzu: Iqlim ta'siriga e'tiboran jismoniy tarbiya

va sport bilan shug'ullanganda odam organizmining moslashishi

O'zbekistonning geografik joylashganligi. Sahrolar mavjudligini hududdagi iqlimning shakllanishiga va iqlimiy sharoitga ta'siri. quyosh radiatsiyasi. Paxta yakkaxonligining odam organizmiga ta'siri (chaglarning zararli oqibatlari). Ekologiya buzilishi tufayli sodir bo'ladigan ofatlarni engib chiqishda jismoniy tarbiya vositalaridai foydalanish usullari. Jismoniy mashqlar bajarishda qishloq joylaridagi mavjud shart-sharoitlar va uni o'ziga xosligi, milliy eport turlari va ularni vositalaridan jismoniy tarbiya mashg'ulotidai foydalanish.

10-mavzu: Xalqaro sport harakatining O'zbekiston sportchilari faoliyati uchun ahamiyati

Jismoniy tarbiya va sportni ijtimoiy o'rni. Jismoniy tarbiya va sport jahon xalklari o'rtasidagi aloqa vositasi. OLIMPIADA, UNIVERSIADA, SPARTAKIADA respublika talabalarini sport o'yinlaridir.

Xalqaro sport harakatlari. Xalqaro sport birlashmalari. halqaro Olimpiada qo'mitasi. Jahon, Ovropa va Osiyo chempionatlari, Osiyo o'yinlari. Nogironlar Olimpiada o'yinlari (Paraolimpiada). Butun dunyo talabalar Universiadasi (sport o'yinlari), Xalqaro sport o'yinlarini, sportning qurolsizlanish, narkotiksiz hayot va dunyoda hamda mintaqada tinchlikni saqlashdagi ahamiyati va o'rni. Ommabop sport turlarining, sport sho'bbalarini talabalar yotoqxonasida va ularni turar joylarida tashkil qilish.

Ma'ruza mavzusi kafedra majlisida - tasdiqdan o'tkazilib, o'quv yurtining ilmiy kengashi muhokamasidan yoki uslubiy kengash muhokamasidan o'tkaziladi.

9. Dasturning amaliy qismi

Jismoniy tarbiya amaliy mashqpar jarayonida talabalarda jismoniy madaniyat, chuqur bilim va amaliy mohirlik, sog'lomlik, psixomotorlik, professional yuqori sifatlilik harakatga olib keladigan epchillik va malakalar, sog'lom turmush siymosini tashkil qilish uchun kerak bo'lgan o'quv, professional hamda

maishiy hayot faoliyati sohasida paydo bo'ladigan muammolarni echishga o'quv jarayonida o'z bilimini o'rttirishga va jismoniy kamolotga etishga yo'llanma beradigan fanlardan biridir.

Dasturda maxsus tibbiy bo'lim nazorat asosida tayyorlangan amaliy o'quv materiali odam organizmi uchun foydali ekanligini ko'zda tutadi. Ushbu material sog'lomlashtirish, kasallikka chalinishning oldini olish, ayrim talabalarni jismoniy tayyorgarlik darajasini ko'zda tutgan holda mashqlar bajarishga tavsiya etish, shuningdek, odam org'anizmining tuzilishi va undagi funktsional o'zgarishlar patologik jarayonga olib kelishidan saqlash, salomatligini saqlash uchun maxsus vositalar qo'llanishi, jismoniy rivojlanish hamda jismoniy mashklar ta'sirida organizmni funktsional tayyorgarligini oshirish va uni jismoniy mashqlar ta'sirida kamolotga etkazish ko'zda tutilgan.

9.1. Jismoniy mashqlar ta'sirida harakatga keltiriladigan holatlarni o'rgatish va takomillashtirish

Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus tayyorlovchi jismoniy mashqlarni o'rganish. Harakat usulini o'rganish. Jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini tarkibiy qismlarini bo'lib o'rganish, jismoniy tarbiya natijalarini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida bir xil bo'lmagan holatda harakat texnikasini mukammallashtirish. Amalga tadbqiqilinadigan ilmiy metodik usul harakatlarni o'rganish bilan tanishtirish va shu kabilar.

Jismoniy sifat harakatlarining shakllanishi sport va jismoniy mashklar turlarining o'rganilishi jismoniy sifatlarni tarbiyalash va sport malakasini oshirish.

Odam organizmini charchashga, akliy zo'riqishga bo'lgan qarshiligini oshirishga ta'sir, tezda hayajonlanib ketganda ishlaydigan jismoniy mashq vositalari. Turli xildagi jismoniy mashqlarni ta'sirida organizmning shakllanishi.

9.2. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun asosiy vositalar

9.2.1. Kuch va tezkorlik kuchini tarbiyalash

Qo'shimcha og'irlik bilan bajariladigan mashklar. Odam tanasining vazni va ayrim qismlari og'irligi bilan bajariladigan mashqlar, sherikning vazni bilan (ta'siri) bajariladigan mashqlar, unga qarshilik ko'rsatishi, egiluvchan sport buyumlarning qarshiligiga (espander va rezinali amortizatorlar), kichik vaznli og'irliklar bilan (gantellar, engillashtirilgan shtanga va uning qismlari (toshlar). Gimnastika sport buyumlarining og'irliklari, trenajerlar, statik (izometrik) qurilmalari, og'irlik bilan, musobaqa mashqpari va qo'shimcha qarshiliklar bilan bajariladigan mashklar.

Uzunlikka, balandlikka, bir joydan va yugurib kelib sakrash, oyoqdan oyoqqa bir necha bor sakrash va bir oyoqda sakrash, o'tirgan joyidan balandlikka sakrash, og'irlik bilan balandlikka sakrash. Koptokni, lappakni, nayzani otish, yadroni iring'itish, qipiq tiqilgan koptokni (meditsinbol) otish.

Statik va dinamik kuch mashqlaridan bir vaqtda foydalanish. Kuchni tarbiyalash va rivojlantirish uchun ishlatiladigan maxsus tezkorlik mashqlar to'plamidan foydalanish. Aylanma mashg'ulotlarining usullarini qo'llash.

9.2.2. Tezkorlik va uni tarbiyalash

Bir necha bor qaytarilib bajariladigan jismoniy mashqlar har birinink-davomiyligi 20 sek. tezlanish, suzish, velosiped sporti bilan shug'ullanish, tezkorlikni oshiruvchi turli xildagi mashqlar to'plamidan foydalanish. To'satdan berilgan xabarga tez va to'g'ri Javob berish, tez fikr yuritish.

Sportning ayrim bir turlarida butun bir mashqlar to'plamini yoki ularning bir necha qismlarini yuqori darajali (shiddatli) tezlikda bajarish (gimnastika, engil atletika, kurash, sport va harakatli o'yinlarning ayrim belgilarini va h.k). Yuqori tezlikda" bajariladigan musobaqa mashqlari va ularning qismlarini engillashtirilgan sharoitda va og'irlashtirilgan sharoitda bajarish.

Engillashtirilgan yoki og'irlashtirilgan sport jihozlarini og'irligi, belgilangan sport buyumlarini navbatma-navbat uloqtirish, to'siqtan o'tish, o'kituvchilar tomonidan qo'yilgan jumboqyarni echishda tez fikr yuritish, estafetali musobaqalarga o'rgatishda milliy o'yinlarning ayrim belgilarini kiritish.

9.2.3. Chidamlilik

Umumiy chidamlilik (sportcha yurish, chopish, suzish, velosiped sporti belgilari, gimnastika mashqlarini ko'p marta va uzoq vaqt qaytarish bilan, statik holat, o'qish va yozish va h.z.) 30 daqiqadan 1-2 soatgacha bajariladigan mashqlar jismoniy mashqlar, charchash va uni engil uchun ko'pincha bir xil tezlikda va uzoq muddatda, o'zgaruvchi va takroriy ya'ni aerobik mashq, bajarish rejimi, aerobik-anaerobik rejimda ish bajarish usullarini qo'llash.

9.3. Tezkor – chidamlilik.

Maxsus, davomiyligi chegaralangan tezlik va chidamlilik musobaqa va turkum mashqlar, ularni o'zgaruvchanligiga, takroriylikiga va mashq bajarish oralig'ida dam olish va yana mashq bajarish usullarini qo'llab aerobik rejim va aerob-anaerob rejim imkoniyatlarini yuqori darajada o'stirishga qaratilgan.

9.4. Kuch. Mashg'ulotda talaba qobiliyatining eng ko'p miqdoridan 30-70% yuklama bilan takroriy mashqlar bajarish.

Musobaqa tezligida bajariladigan jismoniy mashkdarni yoki uning qismlarini musobaqa vaqvdan tezroq va uzoqroq bajarish. Belgilangan qisqa vaqt ichida jismoniy mashqlarni yoki uning ayrim qismlarini takrorlash sonini ko'paytirish, mashg'ulotlarda uning bajarish zichligini (dam olish vaqini qisqartirib) oshirish evaziga. Bir haftaga, belgilangan mashg'ulot sonini uyga berilgan topshiriqlar tufayli ko'paytirish.

9.4.1. Harakatlarni uyg'unlashtirish (koordinatsion).

Muntazam o'rganish va yangi o'rganilgan mashqlarni murakkab birlashtirish jismoniy harakatlari, ularni mohiyatini, kuchini, egallash. Tashqi sharoit ta'sirida hosil bo'ladigan o'zgarishga bog'liq bo'lgan tez harakat faoliyatini qayta tashkil qiladigan mashqlarni qo'llash (gimnastika, sport va harakatli o'yinlar elementlari, kurash, engil atletika turlari). Turli xil mashkdarni ajoyib birikmalarini to'g'ri bajarish: turgan joyidan uzunlikka sakrash, sakrash tomonga orqa bilan turib sakrash. Erga qo'nish oldidan qo'shimcha aylanish uchun tayanib sakrash. Sport o'yinlarida har xil taktik va texnik usul

bajariladigan harakat mashqlarini bajarish, uning usulini o'zgartirishni kinemaTik va dinamik ta'rifi. harakat mohirligi va mahoratini oshirish va takomillashtirish.

9.4.2. Egiluvchanlik.

Odam orgajzmi mushaklarini faolligini oshirish uchun bajariladigan mashklar, paylarni va bo'g'in birikmalari harakatlarining harakatchanligani oshirish. Odam organizmini kuchlanishi, sheriklarni yordami yoki qo'shimcha og'irlik osqvdaharakatni katta amplituda bilan bajariladigan mashklar.

Sodda, egiluvchan va silkitish harakati mashqlarini tashqi yordam me'yorida va eng katta og'irlik bilan va og'irliksiz, takroriy egiluvchan harakatlar, muvozanat holatni uzoq vaqtga ushlab turish, imkoniyat boricha sport jihozlarisiz mushaklar cho'ziluvchanligini tarbiyalash va gimnastika asbob uskunalaridan foydalanish.

9.5. Mutaxassisligi bo'yicha amaliy jismoniy tayyorgarlik.

Mugaxassislik bo'yicha amaliy tayyorgarlik talabalarni nafaqat jismonan tarbiyalaydi, balki ularni tartib-intizomga, odobga o'z kasbini sevishga, ish unumdorligini va faoliyatini o'sish jarayonining tarkibiy qismi sifatida bo'lajak mutaxassislarni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida oliy o'quv yurtlarining hamma bo'limlarida o'rganiladi.

Mutaxassislik bo'yicha amaliy-jismoniy tayyorgarlikni vazifalari mutaxassislikka zarur bo'lgan mehnat sharoiti, ruhiy-jismoniy yuklanish tavsiflari, jismoniy va maxsus jismoniy sifatlar, mahorat va ko'nikma hosil qilishda yuz berishi mumkin bo'lgan kasbga oid kasalliklarini oldini olish, shu maqsadda jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanish hakida ma'lumot berish ish faoliyatida zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni alohida izchillik bilan rivojlantirish:

mutaxassislikni muvaffaqiyatli egallashga yordam beradigan qobiliyat va malaka orttirish harakatlarini shakllantirish;

- maxsus mehnat sharoitiga tayyorgarlik ko'rish;
- maxsus iroda va chidamkorlik sifatlarini tarbiyalash.

Talabalarni kelajak mutaxassisini (kasbini) e'tiborga olib ayrim OO`Yu uchun MAJT amaliy mashg'ulotlar namunasi

MAJT namunasi

Ekspeditsiya va dala sharoitida ishlovchi mutaxassislar.

Suv transportida (dengiz, daryo floti va baliqchilik sanoati) ishlovchi mutaxassislar uchun.

Sayyohlik. Turgan joyini aniqlab bilish. Tog'lik joylarda adashmasdan yotoq joy tashkil qila bilish. Suv to'sig'idan o'tish va uni tashkil qila bilish, otda yurish va yuklarni tashishni tashkil qilish va boshqalar. Sport usuli bilan suzish, kiyimda yon bilan suzish. sho'ngash. Suv ostida suzish. Eshkak eshish va qayiqni boshkerish. K^yiqni arqon yoki langar cho'p bilan boshkarish. Parus sporti. Suvda

Aviatsiya va aviatsiya texnologiya-si mutaxassislari uchun.

Metallurgiya soxasida ishlovchi mutaxassislar uchun.

Qurilish sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun. Huquqshunos, filolog va falsafa mutaxassislari uchun.

yordam (qutqaruvchini harakati) va boshkalar.

Sport gimnastikasi, akrobatika, batutda turli mashqlar, suvga sho'ng'ish, tog' changi sporti Vestyubulyar apparatini mustahkamlashtirish uchun mashqlar va trenajer, maxsus uskunalarda turli xil mashqlar. Havo, quyosh nuri, suvda va qorda chknikish. Mashg'ulotlarda engil kiyimda issiq havoda (havo harorati past bo'lganda yoki teskarisi) o'tkazish. Mashg'ulotlarni havo harorati tez o'zgargan paytda o'tkazish. Muvozanat saqlash va vestyubu-lyar turg'unlikni tarbiyalovchi mashqlar. Sport gimnastikasi, akrobatika, batutda mashqlar. Tog' chang'i sporti. Kuchni tarbiyalovchi, asosan qul uchun chidamlikni harakat muvozanatini saqlash, tezkorlik jismoniy sifat-larni tarbiyalovchi mashqlar, kurash, yakka sharqona mashqlar.

10. O'quv hujjatlari.

O'quv hujjatlarini tartibga solish respublikaning xamma oliy o'quv yurtlarida ushbu dastur asosida olib boriladi va quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

1. Asosiy va sport guruhlar uchun o'quv rejasining namunaviy nusxasi. O'quv yurtining moddiy-texnik va o'quv-sport inshootlari ahvolidan kelib chiqqan holda o'quv dasturining hamma bo'limini o'z ichiga oladi. Dasturning soat miqdori sport inshootlari va kafedra mutaxassislarining soniga bog'liq, ko'rsatilgan soatlar me'yori majburiy emas, balki namunaviy asosda bo'lishi kerak.

2. Kurs va bo'lim uchun alohida dastur tuziladi. Dasturning har bir bo'limini bajarish majburiy hisoblanadi. Masalani echish uchun darsga ajratilgan vaqt, har bir dars uchun aniq ko'rsatiladi.

3. Bir mashg'ulotning rejasini. Belgilangan masala har bir mashg'ulot uchun alohida tuziladi va har bir mashg'ulotga kerak bo'lgan sport jihozlaridan uslub, sarf qilingan vaqt ish rejasidagi jadvalga mos bo'lishi shart.

4. Talabalarining dars mashg'ulotlarga kelib ketishini, ularning jismoniy mashq bajarganda erishgan yutuqlarini va sportda erishilgan yutuklarni qayd qilish daftarini tutish.

O'quv ishlarini tartibga solish va sportda erishilgan natijalarning o'sishini o'quv jarayonida nazorat qilish uchun respublikada yagona o'quv qayd daftarini tutish shart.

O'quv qayd daftariga qo'yiladigan talablar:

- a) 1 kursdan 2 kursgacha, ya'ni butun o'quv kursi bo'yicha uzluksiz bo'lishi;
- b) talabaning reyting-test va sinovdan o'tishi va o'quv yillarida institut ish dasturini o'z ichiga olishi;
- v) dasturda ko'rsatilgan testlar va baholash me'yoriy jadvallarini ko'zda tutish;
- g) talabalar o'qish davomida topshirgan mezonlar qaydnomani o'z ichiga olish.

Asosiy bo'lim talabalar uchun namunaviy test-reyting me'yorlari

(hamma kurslar uchun)

Yigitlar uchun

T/r	Nazorat testlari	a'lo	yaxshi	qoniqarli
	60 m yugurish (soniya)	7.6	8.0	9.0
	100 m yugurish (soniya)	13.2	13.5	14.0
1	Kross: 1000 m 3000 m	3.20.0 11.50.0	3.30.0 12.00.0	3.40.0 12.20.0
2	Suzish 50 m (soniya)	44	50	52
5	100 m suzib o'tganda a'lo	baholanadi.		
4	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	250	240	230
5	Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm)	500	480	460
6	Yakka cho'pda osilgan holatdan tortilish (marta)	16	14	12
7	Yakka cho'pda osilgan holatda oyoqni qo'lgacha ko'tarish (marta)	18	16	14
8	Yakka cho'pga kuch bilan aylanib chiqish (marta)	10	8	6
9	Tayanib yotgan holatdan qo'lni bukish (marta)	50	45	40
10	Yadro irg'itish ikki qul bilan pastdan uloqtirish (m)	8 12	7 11	6 10
11	Granata uloqtirish (m)	40	38	35
12	Bir oyoqda o'tirib turish: chap va o'ng (marta)	20/20	18/18	16/16
13	4x10-15 komsheks mashq-lar tik turgan holatdan sakrash, tayanib yotganda qo'lni bukish, tayanib yotganda oyoqni bukib, orqaga siltab tashlash chalqancha yotgan holatda oyoqni 90 burchakka ko'tarish (soniya)	55	60	68
14	Gimnastika o'rindig'idan egilish (sm)	15	10	8
15	Otish (o'q uzish) masofa 25m-50m (natija)	45	40	35

16	Arg'imchokda sakrash 1 daqiqa 1.5 daqiqa (marta)	140 180	130 160	110 140
17	Ikki xatlab sakrash (sm)	500	480	450
18	Uch xatlab sakrash (sm)	700	650	600
19	Basketbol (juftlikda koptokni Zbm olib borish) (soniya)	8	9	10
20	Ikki oyoqda o'tirib turish 1 daqiqa (marta)	62	60	50
21	Oyoqdar elka kengligida tizzani bukmasdan ol-dinga engashib qullarda 4 qadam yurish, qaytish va tik turish 30 soniya (chuvalchang)	15	13	10

Qizlar uchun

T/r	Nazorat testlari	a'lo	yaxshi	qoniqarli
1	Yuz metr yugurish (soniya)	16.0	16.8	17.0
2	1000 m yugurish	5.15.0	5.20.0	5.35.0
3	Kross: 2000m	11.00.0 13.00.0	11.30.0 13.30.0	12.00.0 14.00.0
4	Suzish 50 m (soniya)	58	1.08.0	1.16.0
	100 m suzib o'tganda a'lo baholanadi.			
5	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	180	170	160
6	Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm)	370	360	350
7	Gimnastika narvonida osilib oyoqdarni buk-masdan elka balandligicha ko'tarish (marta)	10	8	6
8	Gimnastika narvo-nida osilgan hodda oyoqni 90 burchakda kutarib turish (sekund)	30	20	10
9	Meditsinbol irg'itish 3 kg (m)	30	20	10

10	Bir oyoqda o`tirib turish	16/16	10/10	6/6
11	Tennis koptogini otish (m)	35	30	25
12	Kompleks 4x10 mashqlar to`plami tayanib yotgan holatda qulni bukish, ikki oyoqda sakrash, yotgan holatdan oyoqni bukib tug`rilash, chalqancha yotgan holatda oyoqni 90 burchak kutarish 10x4 (soniya)	50	55	60
13	Mokisimon 5x5m yugurish (soniya)	10.0	12.0	14.0
14	Voleybol koptogini 1 daqiqa erga tushirmasdan o`ynash (marta)	36	32	30
15	o`tirib turish 30 soniyada (marta)	32	30	25
16	Basketbol koptogini to`siqlar orasidan olib yurish 10 m (soniya)	9	10	12
17	Muvozanat saqlash: Oyoqlar birga oyoq uchida ko`tarilib ko`zni yumib boshni bir oz orqaga ko`tarish (soniya)	8	6	4
18	500m yugurish (daqiqa)	2.00.0	2.05.0	2.20.0
19	60m yugurish	9.0	9.4	9.8
20	Tik turgan holatdan tiz-zani bukmasdan oldinga engashib qo`llarda 4 qadam oldinga, ork`ga yurish va tix turish 30 soniyada (marta)	14	12	10
21	Tik turib tennis koptogini devorga otib ushlash 15 soniyada (masofa 3.5m)	14	13	12
22	utirgan joyidan oyoqlar keng yoyilgan holatda polga tekizish	elkani	jag`	peshonani
23	Arg`imchoqda sakrash 1 daqiqada 1.5 daqiqada (marta)	150 185	145 180	135 165

Maxsus tibbiyot bo`limida talabalarning jismoniy tayyorgarligini baholaydigan namunaviy nazorat testlar

Yigitlar uchun (maxsus tibbiyot guruhi)

T/r	Nazorat testlari	a'lo	yaxshi	qoniqarli
1	100m yugurish (soniya)	14.0 gacha	14.1 - 14.7	14.8 --15.0
2	Yakka cho`pda (turnik) tortilish (marta)	10	8	6
3	Tayanib yotgan holda qo`lni bukish (marta)	40	35	30-25
4	Kross: 1000 m 2000 m 3000 m	4.00.0 10.00.0 13.10.0	4.20.0 10.30.0 13.30.0	5.00.0 12.00.0 14.00.0
5	Turgan joyidan uzun-likka sakrash (sm)	230	215	210
6	Gimnastika o`rindig`ida tik turgan holdan oldinga egilish	15sm	Yusm	5sm
7	Yakka cho`pda (turnik) oyoqni ko`tarish (marta)	12	10	8
8	Chalqancha yotgan holatdan oyoqni, gavdani ko`tarish (marta)	40	30	25
9	Medetsinbolni irg`itish (marta)	25	20	16
10	Tennis koptogini 5 marta nishonga otish, oraliq Yum (natija)	50	40	30
11	Basketbol koptogini savatga tashlash (marta)	5	4	3
12	Gimnastik narvonda rsilgan holda 90 burchak yasash (soniya)	20	15	10
13	32 hisobga gimnastika mashqlarini bajarish	xatosiz	1 xato	2 xato
14	Arg`imchoqda sakrash 1 daqiqa 1.5 daqiqa (marta)	120 140	110 130	100 110
15	Basketbol (juftlikda koptokni erga tushirmay 30m olib borish) (soniya)	8	9	10
16	Oyoqlar elka kengligida tazzani bukmasdan ol-dinga engashib qo`llarda 4 qadam yurshl, qaytish va tik turish 30 soniya (chuvalchang) (marta)	12	10	8

17.	Voleybol koptogini 1 daqiqa erga tushir-masdan o`ynash (marta)	40	36	32
18	Muvozanat saqlash: oyoqlar birga, oyoq uchida ko`garilib, ko`zni yumib boshni bir yuqoriga ko`tarish, qo`l belda (soniya)	9	8	5
19	Basketbol koptogini to`siqlar orasida erga urib olib yurish 12m (soniya)	8	10	12

Qizlar uchun

T/r	Nazorat testlari	a`lo	yaxshi	qoniqarli
1	100m yugurish (soniya)	17.6	18.0	18.6
2	2000m sportcha yurish	14.00.0	14.20.0	15.00.0
3	Chalkancha yotgan holatdan oyoqlarni ko`garish (marta)	40	35	30
4	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	160	155	150
5	Basketbol koptogini savatga tashlash (marta)	4	3	2
6	Gimnastika narvonida osilgan holda 90 burchakgacha oyoqlarni ko`tarish (marta)	40	35	30
7	Tennis koptogini 5 marta nishonga otish, oraliq 10m (natija)	50	40	30
8	Gimnastika o`rindig`ini ushlab qulni bukish (marta)	20	17	15
9	Gimnastika o`rindi-g`ida tik turgan hodda oldinga egilish (sm)	180	160	150
10	Arg`imchoqda sakrash (marta)	180	160	150
11	Suzish 50m	1.05.0	1.10.0	1.15.0
12	Gimnastika halqasini gavda atrofida aylantirish (daqiqa).	2	1.5	1
13	32 ta gimnastika mashqlari to`plami	xatosiz	1 xato	2 xato

14	Utirgan joydan oyoqlar keng yoyilgan holatda polga tekkizish	elkani	jag'	peshonani
15	O'tirgan holatdan oyoqlarni keng yozib tennis koptogini devorga otib ushlash 15 soniyada (masofa 3.5 m)	14	13	12
16	60m yugurish (soniyada)	10.0	10.4	11.0
17	500m yugurish	2.30.0	2.50.0	3.10.0
18	Voleybol koptogini 1 daqiqa erga tushirmasdan o'ynash (marta) (soniyada)	36	32	30
19	Basketbol koptogini to'siqlar orasida erga urib olib yurish 12 m (soniyada)	10	12	16
20	Muvozanat saqlash: oyoq uchida turib, qo'l belda, bosh ko'tarilgan, ko'z yumilgan (soniyada)	8	6	4
21	«Chuvalchang»	12	10	6
22	Basketbol koptogini juftlikda 20 m olib borib, kelish (soniya)	12	16	18

Har kungi mashg'ulotning rejasi II kurs talabalari uchun

(qisqartirilgan II semestr 4 mashg'ulotga)

1-mashg'ulot

Darsning vazifasi: tanishish mashg'uloti, safda turish, safda joy almashtirishni o'rganish va shu guruhga qo'shimcha talablar qo'yish, ikkinchi o'quv yilida o'qitishning vazifasi. Sinov sharti III va IV semestrlarda test- sinov nazoratlari va mezonlari.

2- mashg'ulot

Darsning vazifasi: III semestr nazorat mezonlarini topshirish. Safga tizilish, dars to'g'risida ma'lumot, davomatni tekshirish, kundalik dars vazifasini e'lon qilish, mushaklarining chigalini echish mashklarini bajarish mezonlarini topshirish, yakunlash.

3- mashg'ulot

Darsning vazifasi: 1. Saflan, Rostlan, Erkin, O'nga, Chapga. 2. O'rta masofaga yugurishda baland start texnikasi bilan tanishish. 3. Yadro irg'itishda yadroni ushlash texnikasi. Asbob-uskuna: sekundomer (vaqt o'lchagich), mushaklar chigalini echish, turli vazndagi yadrolar, o'rama tasma.

Tayyorlov bo'limi

Safga tazilish, ma'lumot berish, dayumatni tekshirish, darsning vazifasini elon qilish. Saflan, Kadlan, Erkin, Chapga, O'ngga. Mushaklar chigalini echish mashkdari (yugurish, umumiy rivojlantirish gamnasgika mashkdari, engil atletika maxsus mashkdari).

Darsning asosiy qismi

O'rta masofaga yugurish uchun bir necha maxsus mashqlar to'plamini bajarish misol uchun tizzani baland ko'tarib yugurish, oyoqtsan oyoqqa sakrab yugurish, o'rta tezlikda 200-ZOOM masofani 45-50 sekundda bir necha bor yugurib o'tish (dam olishga 200 m) yurib o'tiladi.

Kuch sifatini tarbiyalaydigan mashqlar to'plami. Masalan: maydonda yotgan holatdan qo'lni bukib to'g'rilash (30 sek. tez 30 sek. dam olish). Devorni qo'l bilan ushlab galma-gal chap va o'ng oyoqtsa o'tirib turish, qo'llarni oldinga cho'zib ikki oyoqtsa tez (sekundomer bilan vakti belgilaydi) o'tirib turish, tovonnts erdan uzmasdan (30 sek. o'tirib, 20 sek. dam olish)

Chuqur o'tirgan holatdan balandlikka sakrash (sakrashni balandligi va sakrash tezligi va vaqti belgilanadi) 30-40sm balandlikka 10-15 marta sakrab 25-30 sekund dam olinadi.

O'rta masofaga yugurganda yugurish texnikasiga e'tibor berib yugurish, oyoqni orqaga siltab yugurish, oyoqtsan-oyoqqa sakrab yugurish, estafeta turlarvdan foydalanish, baland start bilan bir necha bor yugurib ko'rsatish. Talabalar tomonidan baland start olishni bajarish, xatolarni tuzatish. Baland startni bajarib 20-25 metrga chopishga o'tish (tezlikni o'qituvchi belgilaydi).

Yadro irg'itish uchun maxsus mashqlar to'plamini bajarish (mushaklar chigalini echish mashqlaridan so'ng). Talabalar yadro irg'itish doirasi ichiga kirib to'g'ri va bukilgan qo'lni oldinga va orqaga aylantirish. To'g'ri va bukilgan qo'lni balandga va har tomonga siltash: yadroni bir qo'ldan ikkinchi qo'lga tashlab o'ynash, tepadan, bosh orqasidan yadroni irg'itish, ikki qo'l bilan pastdan oldinga uloqtirish, sektorga orqa bilan turgan holatdan yadroni ikki qo'l bilan orqaga uloqtirish. Yadroni to'g'ri uloqgirishni o'rganish. O'qituvchi rahbarligida yadro irg'itish va irg'itishdagi xatolarni tuzatish, tepaga ko'tarilgan qo'lda yadroni to'g'ri ushlash, qo'lni bukib bo'yinga qisgan holatdan yadroni uloqtirish.

Darsni yakuniy qismi

Mashg'ulotni vazifasi:

1.«ROSTLAN», «QADLAN», «ERKIN», «ChAPGA», «O'NGGA», «AYLAN», «YuR» buyruqyaarni safda bajarishni yaxshi o'rgatish (uyga topshiriq).

2. O'rta masofaga yugurish texnikasi bilan tanishish. Yadro irg'itishdan oldin maxsus mashqlarni to'g'ri va bukilgan qo'lni oldinga-orqaga siltash. Bir qo'ldan ikkinchi qo'lga yadroni tashlab o'ynash, ikki ko'l bilan tepadan, oldinga uloqtirish, ikki qo'l bilan oldinga otish. Sektorga yon bilan turgan holatdan yadro irg'itish.

3. Basketbol o'yini, darsga yakun yasash, uyga vazifa.

Semestrda test sinovlarning sharti

Jismoniy tarbiya fanini test-sinovlaridan o'tish uchun:

1) Jismoniy tarbiya darsiga kamida 85% qatnashish, 4 va undan ko'p soat darsga sababsiz kelmagan talabalar, qoldirgan darslarini qayta ishlashga yuboriladi. Talabalar tomonidan qayta ishlash

kafedrani navbatchi yoki hay'atga kirgan o'qituvchilari tomonidan darsdan tashqari vaqtda qabul qilinadi.

2) O'quv yurtning shu semeestr uchun tuzilgan ishchi dasturida ko'rsatilgan test-reyting nazorat mezonlarini o'rtacha, 2,6 dan past bo'lmagan ballga topshirish. har bir topshirilgan mashqlar uchun alohida ball qo'yiladi. qo'yilgan o'rtacha ball qaydnoma daftarida ham bo'lishi shart. Semestrda rejalashtirilgan test mezonlar baholanib, ularni yig'indisi talabani sinov daftarchasiga tushiriladi.

Talabalarni vaqtinchalik ishga yaramay qolishi, Darsga kelmaslikka sabab bo'lmaydi va uni reyting nazorat mezonini topshirishdan ozod qilmaydi.

Talabalarni shahar, viloyat, respublika "miqyosdagi musobaqalarda institut terma jamoasi tarkibida qatnashishi sinovdan o'tishga ko'mak beradi.

